

## MUHAMMAD YUSUFNING SERQIRRA IJODI

*Yuldasheva Dilnoza Madaminovna*

*Namangan viloyati Pop tumani 21-umumta'lim maktabi Ona tili adabiyoti  
o'qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Muhammad Yusufning ijodidagi ba'zi she'rlari haqida va ularning ijodiy yutuqlari haqida fikrlar berilgan. Shoirning ijodi yuksak baholashga loyiq ekanligi aytilgan.

**Kalit so'zlar:** insoniy kechinmalar, she'riyat, lirik tasvir, lirik qahramon, she'riy parcha

### **KIRISH.**

Barcha o'zbek xalqining sevimli shoirlaridan biri bo'lgan Muhammad Yusuf haqida juda ko'p gapirish mumkin. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Shoirning «Mehr qolur» she'rini eslang-a: O'tar inson yaxshi-yomoni, Mehr qolur, muhabbat qolur. Shoir she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoladi. Ona diyor va istiqloq kuychisi ... Muhammad Yusuf noyob iste'dod egasi, odamlarni mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi... O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26- aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari ichida erka dilbandi bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x yigit bo'lib, ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo'lganligi bois ko'p [pedagoglar.org](http://pedagoglar.org)

kitoblarni sevib o'qigan va savollarga javob izlagan. Shu bilan birgalikda Muhammad Yusuf ochiqko'ngil va hayolparast bola bo'lib, shariyat va adabiyotga mehri juda baland bo'lgan. Bunday mehrni uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg'otgan edi. Muhammad Yusuf garchi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan bo'lsada, o'qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. 1973-yili o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, Reshetov nomidagi Rus tili va adabiyoti Institutiga o'qishga kiradi. 1978-80 — yillar oralig'ida harbiy xizmatni o'taydi va bu davrlar shoir uchun mashaqqatli va murakkab tajribali davr bo'ladi, shoir ko'nglida „Ona vatan“ tuyg'usi yanada alanganadi.

Muhammad Yusuf she'riyatining eng oliy fazilati, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she'rlarini jilolantirib, bezab, ularga betakror ko'rku tarovat bag'ishlaydi. Shoir ijodida bo'y cho'zib turgan muhtasham obraz - bu, albatta, Vatan obrazi, O'zbekiston timsoli. Uning Vatanga muhabbati juda g'aroyib... Muhammad Yusuf «yuragining Olampanohi bo'lgan» Vatan haqida hamisha jo'shib yozadi. U tom ma'noda Vatan kuychisi. Shoir nazarida, Vatanga muhabbat - Vatan uchun fido bo'lmoqqa tayyor turish, o'ziga hech narsa tilamaslik, buyuk sadoqat, ixlosdan iborat.

*Do'stlar, og'iz to'ldirib Vatan*

*Deya olmoq o'zi baxt ekan!* - deya hayqiradi “Hur o'lkam” she'rida.

Bu yorug' olamning jannatlari borligini, ko'pligini aytib, ammo Vatandan bo'lagi bari minnat ekanini ta'kidlaydi. Bunda teran falsafa mujassam. Vatan, bu - “toy qoqilib, ot bo'lguvchi yaylovdur”, deydi. “Yurtning etagini o'pishga (hatto! - M.A.) osmon engashgan...” ini ko'rib g'ururlanadi shoir. Bu Vatanda “kulgichida oftob chiqib, oftob botgan” go'zallar yashaydi, deya shavqu sururga to'ladi shoir qalbi. “Izhori dil” she'rida shunday satrlar bor:

*Ko'hna tol beilikdan*

*Boishanar olam, Senga iddaolar Qilmay sevaman.*

*Bir kuni singlim, deb,*

*Bir kuni onam -*

*Vatan,  
Kimligingni  
Bilmay  
sevaman.*

Shoirning Vatanga muhabbati g'aroyibli xuddi ana shunda, ya'ni: "...iddaolar qilmay sevaman!" deyishida! Bu, ayniqsa, yoshlar uchun katta ibrat namunasidir. Muhammad Yusuf she'riyatining xususiyatlaridan biri uning mavzuni o'ylab chiqarmasligida, balki bevosita hayotning o'zidan olishida ko'rinadi. Muhammad Yusuf she'rlarining yana bir fazilati uning soddaligidadir. U o'z she'rlari uchun har xil shakllar ham qidirib yurmaydi, xalq qo'shiqlari yo'lida, gohida murabba shaklida qalam tebratishni xush ko'radi. Shunda she'rlar qog'ozga ravon va sodda tushadi, ma'nosini tushunish ham oson kechadi. Chunonchi, "O'zbek" she'rida shunday satrlar bor:

*Ehtirom etganga ehromlari bor,  
Kekkeyganga bo'yin egmaydi zinhor.  
Beshik to'la jajji islomlari bor,  
Tosh o'tmas qo'rg'onga o'xshaydi O'zbek!  
Qiyosin topdingmi aytgin Muhammad?  
O'xshasa o'ziga o'xshaydi O'zbek.  
Yomon she'r yozsang ham, betingdan  
o'pib, Kam bo'lma, bolam, deb yashaydi  
o'zbek...*

Bunda xalqimizning kengfe'l, kechirimli, bolajonligi, tanti va jo'mardligi juda chiroyli aks etdirilgan. Shuningdek, Muhammad Yusuf ijodida tashbeh, talmeh, tazod singari badiiy san'at vositalardan juda o'rinli va oqilona foydalangan. Bu esa shoir she'rilarini jozibali va ta'sirchanligini yanada oshiradi. Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o'xshatish deb yuritiladi. U shunday san'atki, unda so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi, o'zaro solishtiriladi,

tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta'sirliroq ochib beriladi. Vatanga muhabbat, onaga muhabbat kabi muqaddas va buyuk tuyg'u. Olloh insonga Vatanni muzliklarda ham, sahrolarda ham, changalzorlarda ham ato etishi mumkin. Lekin yaratgan bizga O'zbekiston deb atalgan tuprog'ida oltin bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tugatmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan. Ya'ni shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan lekin mos keladigan tashbehlarni, o'xshatishlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligini shoir asarlarning o'ziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Shoir Vatan haqidagi she'rlarining ko'pchiligida Vatanni onaga, singilga va opaga mengzadi. Masalan, "Vatanim" she'rida: *Shodon kunim gul otgan sen,*

*Chechak otgan izimga,*

*Nolon kunim yupatgan sen,*

*Yuzing bosib yuzimga,*

*Singlim deymi,*

*Onam deymi,*

*Hamdard-u hamhonam deymi,*

*Oftobdan ham o'zing mehri,*

*Ilig'imsan Vatanim.*

Shoir Vatan timsolini singlisida, onasida ko'radi. Ona - buyuklarning eng buyugi, ulug'larning eng ulug'i, suyukli zotlarning eng suyuklisidir. Bazan bu so'zga ta'rif berishga ojiz qolasan kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o'z ijod namunalarida munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o'tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vasf etadi.

Shoir Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlarida badiiy san'at vositalardan biri - talmeh san'atidan ham oqilona foydalangan.

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham

tasvirlashdir.

*Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,  
Balhda dorga  
osilgan. Navoiysan,  
shoh yonida  
Faqirni duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko'ringan da'vo qilgan,  
Ming bir yog'i ochilmagan  
Qo'rig'imsan, Vatanim.*

Shoirning “Vatanim” she’ridagi ushbu misralarda Mashrab, Yassaviy, Navoy singari buyuk tarixiy shaxslar hamda qadimgi Blah (hozirgi Eron) shahri nomlari keltirilgan. Ona-yurt fazilatlarini shunday buyuk zotlarning olijanob sifatlariga tenglashtiryapti.

Iste’dodli shoir Muhammad Yusufning iste’dodi, betakror ijodi haqida qancha gapirsak shuncha kam. Xususan, shoirning o‘z Vatani yonib, jo‘shib kuylashi, shoir ijodining alohida jihatlari haqida uning ijodkor zamondoshlari bir qator esdaliklar, maqola va esselar yozishgan. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva o‘z zamondoshi bo‘lgan iste’dodli shoir Muhammad Yusuf ijodiga, xususan, uning she’rlarida vatan obrazi aks etgan jihatlari baho berar ekan: “Axir kim Sizday mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston”, deb kurash maydonlariga tusha olgan edi. Kim elga, yurtga mehru muhabbatini shu qadar sodda, shu qadar suyuqli ayta olgan edi. Men agar biz Sizdek Vatanni sevishni, yorin sevishni, ardoqlashni, asrashni o‘rgandik desam, bu so‘zimda qilcha mubolag‘a yo‘q!”, deb yozgan edi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hamma inson ham vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtni maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo‘la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin

timsol bo'la oladi deb o'ylayman. Shoir she'rlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning she'rlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, mo'tabarligi aks ettirilgan. Shoir ijodi o'zining rang-barang mavzularga boyligi, mazmunan betakrorligi bilan har bir she'riyat shaydolarini o'ziga rom eta oladi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning Vatan ishqini yuragiga joylab yozgan satrlari xalqimizning esini tanigan eng kichik vakilidan eng nuroniy qatlamiga qadar yod bo'lib ketgan, qalbidan chuqur o'rin egallagan.

Hech bir kitobxon yo'q-ki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yo'q-ki, uning misralaridan mehr, muhabbat hissin tuymagan! U shunday iste'dotli shoir-ki, uning har bir she'rida xalqning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlarini madh ettirgan. Shoirning dilga yoqar misralarini hirgoyi qilamagan bironta o'zbek farzandi topilmasa kerak.

#### **FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirvaliyev S., Shokirov R. O'zbek adiblari. - Toshkent, 2007. - B. 240. 10.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 12.
3. Boltaboyev. So'z sehri. - Toshkent, 2006. - B. 98.
4. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.- B.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 275.
6. Manba <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>